

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.28.11.T.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV DONIYOR ABDUSALIMOVICH

**BINOLARNING ISITISH-SOVITISH TIZIMIDAGI ENERGIYA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation of Doctor of Philosophy (PhD)
on Technical Sciences**

Tursunov Doniyor Abdusalimovich

Binolarning isitish-sovitish tizimidagi energiya samaradorligini
oshirish 3

Турсунов Дониёр Абдусалимович

Повышение энергоэффективности систем отопления и охлаждения
зданий..... 23

Tursunov Doniyor Abdusalimovich

Increasing the energy efficiency of the heating-cooling system of
buildings..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.28.11.T.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV DONIYOR ABDUSALIMOVICH

**BINOLARNING ISITISH-SOVITISH TIZIMIDAGI ENERGIYA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4233 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov To'lqin Kamolovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qarshiboyev Asqar Ilashevich
texnika fanlari doktori, professor

Xudayarov Muzaffar Burxonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 17 yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy, Tel.: (+998-65) 223-78-84; e-mail: info@bstu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitet Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy, Tel.: (+998-65) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 29 dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 27 dekabrda 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.N. Sadullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

U.K. Mirxonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kengash kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

K.A. Samiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy ahamiyatga ega binolarning mikroiklimini ta'minlash tizimlarining energiya samaradorligi masalalari hozirgi vaqtda fan va amaliyotning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi va bunday tadqiqotlar energiya tejash nuqtai nazaridan yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Chunki inson hayotini optimallashtirish tizimlari isitish, ventilyatsiya, konditsionerlik, sovuq va issiq suv ta'minoti hamda boshqa energiyani ko'p talab qiladigan quyi tizimlarni o'z ichiga oladi. Dunyo miqyosida (179 ta davlat) 2020–2021 yillar davomida elektr energiyasining umumiy yakuniy (foydali) iste'moli 23 734 mlrd kV·soatni tashkil etgan. 2020-yilga kelib, 1992-yilga nisbatan umumiy foydali iste'mol 5,5 foizga oshgan. 2021-yilda esa 1992-yilga nisbatan elektr energiyasi iste'molining eng katta o'sishi Osiyo va Okeaniya mintaqalarida 5,1 baravarga yetgan. Hozirgi kunda binolarni isitish va sovitishga sarflanayotgan elektr energiyasi jami iste'molning 50–55 foizini tashkil etmoqda¹.

Jahonda binolarni isitish-sovitish tizimlariga energiya tejovchi va samarali qurilmalarni joriy qilish, shuningdek, ekologik toza, zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularning boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari faol olib borilmoqda. Shu doirada binolarni isitish va sovitish tizimlarida energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning resurslardan oqilona foydalanishini ta'minlash, energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlar nafaqat energiya tejashni, balki binolarni ekologik xavfsiz va barqaror energiya tizimlari bilan ta'minlashni ham maqsad qilgan bo'lib, zamonaviy energiya strategiyalarini amalga oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda energiya samaradorligi va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida duch kelinayotgan qiyinchiliklar hamda mavjud imkoniyatlarni o'rganishga bag'ishlangan hisobotda eng dolzarb ekologik va boshqa xavflar aniqlangan, ular yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilgan². Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-oktabrdagi 690-sonli qarori ("Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste'molini energiya auditidan o'tkazish tartiblarini belgilash to'g'risida")³ doirasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishida, jumladan, "Bino va inshootlarni energiya iste'molini energiya auditidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom" va 2024-yil 1-noyabrdan boshlab foydalanish maydoni 200 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarning energiya samaradorligi toifasini aniqlash kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" va 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor

1 <https://uzeltech.uz/uz/> elektrotexnika jihozlarining energiya iste'moli va uni tejash yo'llari.

2 <https://thediplomat.com>. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi: muammolar va imkoniyatlar

3 <https://www.lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.10.2024 yildagi 690-son

chora-tadbirlari to'g'risida"⁴ qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II ustuvor yo'nalishi "Energetika, energiya va resurs tejamlorlik" ga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Binolarni isitish-sovitish tizimida energiya tejovchi qurilmalarni joriy qilish, ekologik toza va zamonaviy qurilmalardan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Budapest Tech Polytechnical Institution (Vengriya), John Hopkins University (Angliya), United Nations University (Yaponiya), International Institute of Management-University (Germaniya), Shanghai Jiao Tong University (Xitoy), Tsinghua University (Xitoy), Harvard University (AQSH), Moskva energetika institutlarida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Isitish-sovitish tizimida energiya samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy muammolarni yechishga bir qator xorijiy olimlar katta hissa qo'shishgan. Misol uchun Olga Yuriyevna Kryuchkova - Markaziy konditsioner tizimlarining energiya sarfini hisoblash uchun ehtimollik-statistik iqlim modelini ishlab chiqqan. Oleg Yanovich Kokorin - Zmonaviy konditsioner tizimlarini xar bir tuzilmalar uchun alohida tizimlarini ishlab chiqqan, Baymachev Yevgeniy Eduardovich - Binolarning mikroiklimini saqlash uchun uslubiy va dasturiy ta'minotini ishlab chiqqan. Hamda L.G. Starkova, E.Yu. Anisimova, Yu.S. Solnishkova, V.A. Baum, R. Bayramov kabi olimlar ham misol bo'la oladi.

Respublikamizda energetika tizimlarining samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy muammolarni hal qilishda quyidagi olimlar: R.A. Zaxidov, T.X. Nasirov, Q.R. Allayev, X.M. Muratov, Sh.V.Xamidov, A.D Taslimov, O.X. Ishnazarov, M.B Xudayarov, Yo.S. Abbosov va S.F. Ergashevlar o'z hissalarini qo'shganlar. Binolarni isitish va sovitishda energiya tejamlorligiga erishish va energiya samaradorligini oshirish muammolarini hal qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar, ushbu tizimdagi qurilmalarni takomillashtirish hamda past quvvatli elementlardan foydalanish orqali foydali ish koeffitsiyentini oshirishga bevosita bog'liq.

Muvaffaqiyatlarga qaramay, binolarni isitish va sovitishda energiya samaradorligini oshirish, mavjud usullarni takomillashtirish va yangi usullarni yaratish bo'yicha yetarlicha izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqotlar ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot izlanishlari va Innovatsion rivojlanish vazirining 2021-yil 5-avgustdagi 205-son buyrug'i 3-ilovasi "Infratuzilma obyektlari uchun energiya tejamlor "Climat control pardalari" ishlab chiqarish" (2021-2022) tijoratlashtirishga tayyorlash loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi ma'muriy binolarning isitish-sovitish tizimidagi energiya samaradorligini oshirishdan iborat.

4 <https://gov.uz/uz/minenergy/uz/news/view/1523> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to'g'risida" qarori

Tadqiqot vazifalari:

elektr va issiqlik yuklamalarini hisobga olgan holda iste'mol energiyasini aniqlash va fizik ish faoliyat koeffitsienti (F.I.K) ni baholash imkonini beruvchi tenglamalar tizimini tuzish;

real vaqt rejimidagi ishlashni modellashtirish orqali tizimning dinamik o'zgarishlarini aniqlash va optimallashtirish;

energetika majmualarida tajribaviy o'lovlar asosida issiqlik va elektr energiyasi samaradorligini aniqlash;

qurilmaning elektr energiyasidan samarali foydalanishini ta'minlovchi prinsipial blok sxemani ishlab chiqish va uni tajribada sinash uchun namuna yig'ish;

energiya tizimida yuklamalarni avtomatik boshqarish, issiqlik va sovitish jarayonlarini real vaqt rejimida optimallashtirish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega ma'muriy binolarning isitish-sovitish qurilmasi.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqotning predmetini energiya samaradorligini oshirish maqsadida qurilmasi ish jarayonlarini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va matematik modellar, qurilmaning konstruktiv-parametrik xususiyatlari, ish rejimlari hamda ularning termodinamik, issiqlik almashinuv va elektr jarayonlariga bog'liqlik qonuniyatlari, shuningdek. tadqiqot doirasida energiyaning saqlanish qonuni, fotoeffekt hodisasi, elektrostatik va elektrodinamik qonunlar hamda "Thumb" qoidasining amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish nazariyasi, eksperimental tadqiqotlar, termodinamik jarayonlarni tahlil qilish, issiqlik balansi va energiya samaradorligini baholovchi empirik tenglamalar tuzish, termografiya usuli yordamida issiqlik tarqalishini aniqlash, ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik statistika metodlari hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Energiya samarador isitish-sovitish qurilmasining elektr energiya iste'molini hisobga olgan holda uning F.I.K ni aniqlash imkonini beruvchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

Sovitish rejimida energiya tejamkorlikka erishish imkonini beruvchi, an'anaviy va noan'anaviy elektr energiya manbalari asosida "Climat control" qurilmasining energiya samarador struktura sxemasi ishlab chiqilgan;

Ekspluatatsion va energetik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda havoni mo'tadillash qurilmasining energiya tejamkorligini aniqlash imkonini beruvchi empirik tenglamasi takomillashtirilgan;

Havoni mo'tadillash qurilmasiga tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda samaradorlikni aniqlovchi immitatsion model ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

an'anaviy va noan'anaviy elektr energiyasini taqsimlash qurilmasi orqali Pelte samarasi va past quvvatli elementlardan foydalangan holda qurilma sxemasi ishlab chiqilgan.

murakkab zanjirli sxemani sodda sxemaga almashtirish orqali energiya samarador "Climat control" qurilmasi ishlab chiqilgan.

isitish-sovitish tizimida yangi qurilmaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida

energiya samaradorligi ilmiy asoslangan.

empirik tenglamani inobatga olgan holda qurilmaning ishlash algoritmi ishlab chiqilgan.

isitish-sovitish qurilmasining empirik tenglamasini inobatga olgan holda qurilmaning “modelga asoslangan” imitatsion modeli joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy metrologik attestatsiyadan o'tgan o'lchov asboblari va dasturlarining, ma'lumotlarni qayta ishlashning ilg'or matematik usullari va me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, shuningdek, nazariy va eksperimental natijalarning o'zaro mos kelishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilmaning elektr energiya iste'mol qilayotgan miqdorini aniqlash imkonini beruvchi matematik ifoda olinganligi va algoritmi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati energiya samarador qurilmaning tajriba namunasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Binolarning isitish-sovitish tizimidagi energiya samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Yarim o'tkazgichli, past quvvatli elementlar yordamida isitish-sovitish tizimining energiya samaradorligini oshiruvchi qurilma sxemasi ishlab chiqildi va “HETK” AJ Qashqadaryo hududiy filialida joriy qilingan (“Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ ning 2024-yil 11-mart sanasidagi 01-05-20/107-sonli ma'lumotnomasi). Natijada binolarning sovitish tizimidagi qurilmalarning elektr energiya iste'mol miqdorini “Climat control” qurilmasini qo'llash orqali ma'muriy binolarning sovitish tizimidagi energiya samaradorligi yillik 3000 kW·h energiya tejash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 2 ta xalqaro, 5 ta Respublika anjumanlarida, hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti “Energetika” fakulteti “Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasida 2025-yil 17-fevral sanasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan, 3 ta xorijiy va 3 ta mahalliy jurnallarda chop etilgan. 5 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Binolarning isitish-sovitish tizimidagi muammolar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida isitish va sovitish tizimidagi muammolar, mavjud qurilmalar va usullar tahlil qilingan.



1-rasm. Konditsioner qurilmasining struktura sxemasi

Binolarni isitish va sovitish tizimidagi energiya samaradorligini oshirishni inobatga olgan holda, olib borilgan ilmiy tahlil asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Climat control” qurilmasini energiya samaradorligini asoslashda matematik modelini shakllantirish** deb nomlangan II bobda “Climat Control” qurilmasining struktura sxemasi, issiqlik jarayonlarini matematik jihatdan ifodalovchi model va hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. Model asosida harorat oʻzgarishiga bogʻliq elektr energiyasining sarfi differensial tenglama koʻrinishida ifodalandi. Ushbu matematik modelda dT/dt vaqt boʻyicha harorat oʻzgarishi asosiy oʻzgaruvchi sifatida qabul qilinib, energiya sarfi shu asosda baholandi.



2-rasm. “Climat control” qurilmasining struktura sxemasi

Tajribaviy o‘lchov natijalariga asoslanib, empirik tenglama shakllantirildi va unda nazariy parametrlar o‘rniga $K_1 - K_3$ empirik koeffitsientlar kiritildi. Bu koeffitsientlar ko‘p o‘zgaruvchili regressiya usuli yordamida aniqlanib, modelning amaliy mosligi statistik jihatdan validatsiya qilindi.

Birlik vaqt ichida ketgan energiyani foydali issiqlik miqdori orqali ifodalangan va qurilmaning matematik ifodasi ishlab chiqilgan.

$$W_{el.en} = \frac{cpabh(T_2 - T_1)}{k_{isit.f.i.k}k_{is}} \quad (1)$$

“Climat control” qurilmasining sovitish tizimidagi, ham isitish tizimidagi ketma-ketlik asosida matematik ifodasi ishlab chiqilgan.

$$W_{el.en} = \frac{cpabh(T_2 - T_1)}{k_{sov.f.i.k}k_{sov}} \quad (2)$$

Issiqlik jarayonlarini tahlil qilish uchun ko‘p faktorli empirik model tuzish usuli, uning matematik asoslari va statistik baholash usullari keltirilgan. Model qurilma orqali harorat va energiya o‘zgarishini aniqlashda qo‘llaniladi:

$$\frac{dT}{dt} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{T(t + \Delta t) - T(t)}{\Delta t} \quad (3)$$

Amaliy model uchun vaqt oralig‘i $\Delta t = 2$ soat deb qabul qilinsa:

$$\frac{dT}{dt} \approx \frac{T(t + \Delta t) - T(t)}{7200} \quad (4)$$

Shu asosda energiya sarfini ifodalovchi tenglama differensial shaklga ega bo‘ladi:

$$\frac{dW_{el.en}}{dt} = \frac{cpabh}{k_{oqim.f.i.k} \cdot k_{foydali}} \cdot \frac{dT}{dt} \quad (5)$$

“Climat Control” qurilmasi uchun tuzilgan nazariy tenglama empirik tenglama shakliga o‘tkazilganda, fizik parametrlar o‘rniga tajriba ma’lumotlariga asoslangan koeffitsientlar, ya’ni empirik ko‘rsatkichlar kiritiladi. Bu usul tizimning real ish sharoitida harorat, energiya sarfi va samaradorlik kabi parametrlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashtirish imkonini beradi. Empirik model qurilmada kuzatilgan fizikaviy hodisalarni statistik yondashuv asosida ifodalashga xizmat qiladi va nazariy hisoblashlarning eksperiment natijalariga yaqinlashishini ta’minlaydi.

1-jadval

Tavsiya etiladigan empirik koeffitsientlar

Nazariy parametr	Empirik koeffitsient	Izoh	Boshlang‘ich oraliq
$cpabh$	K_1	Hajmiy issiqlik sig‘imi va o‘lchamlar o‘rniga	[500, 3000]
$k_{oqim.f.i.k} \cdot k_{foydali}$	K_2	Qurilma samaradorliklari o‘rniga	[0.01, 0.10]
$\frac{dT}{dt}$	K_3	Harorat o‘zgarish tezligi uchun vazn	[0.1, 1.0]

Model quyidagi ko‘p faktorli tenglama shaklida ifodalanadi va issiqlik jarayonlarining dinamikasini tavsiflaydi:

$$\frac{dW_{el.en}}{dt} = K_1 \cdot \frac{dT}{dt} + K_2 \cdot T + K_3 \quad (6)$$

Agar model ko'paytma shaklida berilgan bo'lsa, masalan: $y = a \cdot x_1^{b_1} \cdot x_2^{b_2} \cdot \dots$, u holda logarifmlash orqali uni chiziqli regressiya ko'rinishiga keltirish mumkin:


$$\ln \frac{dW_{el.en}}{dt} = \ln a + b_1 \ln \frac{dT}{dt} + b_2 \ln T \quad (7)$$

Yakuniy empirik model:


$$\frac{dW_{el.en}}{dt} = K_1 \cdot \frac{dT}{dt} + K_2 \cdot T + K_3 \quad (8)$$

Ushbu empirik tenglama asosida qurilmaning ishlashi modellashtirildi. 3 va 4-rasmlar orqali energiya sarfi harorat va uning o'zgarish tezligiga bog'liqligi, shuningdek, modelning QMQ 2.01.04-2018 va SHNQ 2.01.01-2022 normativ me'yorlariga muvofiqligi tahlil qilinadi.

Grafiklarda empirik model asosida energiya sarfi haroratning vaqt bo'yicha o'zgarishi va ichki harorat o'zgaruvchilariga bog'liq holda qurilgan. Modellar qurilmaning energiya samaradorligini baholash va normativ me'yorlarga muvofiqligini tekshirish imkonini beradi.




3-rasm. Ichki harorat bo'yicha energiya sarfi




4-rasm. Harorat o'zgarishi tezligi bo'yicha energiya sarfi

Isitish-sovitish tizimining elektr energiya iste'moli eksperiment natijalari asosida matlab muhiti orqali modellashtirildi. Grafiklar turli boshlang'ich haroratlarda sovitish energiyasining xona maydoniga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi.



5-rasm. Xona o'lchamlarining o'zgarishi bo'yicha sovitish va isitish tartibidagi energiya iste'moli


Validatsiya uchun tajriba davomida isitish-sovitish tizimining energiya sarfining real o'lchovlari matematik modelning natijalari bilan taqqoslandi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda determinatsiya koeffitsienti va o'rtacha qoldiq kvadrati kabi statistik ko'rsatkichlar hisobga olindi.



6-rasm. Model va amaliy natijalar o'rtasidagi solishtirma grafik

Natija shuni ko'rsatdiki, hisoblangan $R^2 = 0.9722$ ga tengligi modelning yuqori aniqlikda ishlayotganini anglatadi. O'rtacha qoldiq kvadrati MRS modelning har bir nuqtada o'rtacha $0.01 \text{ kW} \cdot \text{m}^2$ kvadrat xatolik bilan ishlamoqda.


Algoritmallashtirish asosida muvozanatni saqlovchi va energiya samaradorligini oshiruvchi boshqaruv mexanizmi yaratildi. Bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan algoritmlar real vaqt rejimida tizimning harorat va energiya dinamikasini modellashtirdi.



7-rasm. “Climat control” qurilmasini ishlash algoritmi


Mazkur algoritm binolarda, texnologik qurilmalarda, sanoat isitish-sovitish tizimlarida real vaqtda monitoring, avtonom boshqaruv va energiya sarfini tahlil qilish uchun qo'llanilishi mumkin. U sensorli tizimlar bilan integratsiyalashib, ma'lumotlarni serverga uzatish, grafik ko'rinishda tahlil qilish, nosozliklarni avtomatik aniqlash kabi funksiyalarni ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Climat control” qurilmasining tajriba namunasini ishlab chiqish va tadqiqotlar o‘tkazish** deb nomlangan III bobda xonani iqlimini mo‘tadillashtiruvchi isitish-sovitish tizimiga ega **“Climat control”** qurilmasi ishlab chiqilib, turli tashqi harorat va xona o‘lchamlarida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilib, natijalar nazariy hisoblar bilan taqqoslandi. Qurilmaning turli yuklama va harorat sharoitlarida issiqlik va elektr energiyasi samaradorligini baholash hamda optimallashtirish uchun immitatsion matematik model ishlab chiqildi. Model boshqaruv parametrlarining tizim ishiga ta’sirini tahlil qilish va tajriba natijalari bilan solishtirish orqali $R^2 > 0,95$ aniqlik darajasida tasdiqlandi. Immitatsion model qurilmaning samaradorligini oldindan baholash va optimallashtirilgan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.



8-rasm. Immitatsion modelning struktura sxemasi

Modelni ishlab chiqishda 8-rasmda keltirilgan struktura sxemasi ketma-ketligi asosida isitish va sovitish ko‘rsatkichlari hisobga olindi. Harorat (t , °C) - tizimga kiruvchi va chiquvchi issiqlik uzatuvchining harorati asosiy boshqaruv parametri sifatida olingan. Bu parametr asosida isitish yoki sovitish jarayonining faolligi aniqlandi. Energiya sarfi (P , kW) bu parametr orqali tizimning umumiy energiya ishlatish ko‘rsatkichi real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berdi.



9-rasm. “Climat control” qurilmasining model ko‘rinishi

9-rasmda **“Climat Control”** qurilmasi isitish yoki sovitish tizimlarida energiya oqimini boshqarish va tartibga solish vazifasini bajaruvchi nazorat modulining

immitatsion modeli keltirilgan. Ushbu qurilma real fizik jarayonlarni raqamli simulyatsiya qilish imkonini beruvchi immitatsion model orqali tahlil qilindi. Model MATLAB/Simulink muhitida yaratilgan bo‘lib, komponentlar o‘rtasidagi isitish va sovitish tizimini ishlash holatlarining dinamikasini o‘rganishga imkon berdi.


2-jadval

Belgilanishi	Nomlanishi	O‘lchov birligi
T_1	Tashqi harorat	$^{\circ}\text{C}$
T_2	Talab qilingan (ichki) harorat	$^{\circ}\text{C}$
C	Havoning solishtirma issiqlik sig‘imi	$1.005 \text{ kJ}/(\text{kg}\cdot^{\circ}\text{C})$
a va b	Xona uzunligi va eni	m
h	Xona balandligi	m
$k_{\text{sov.f.ish}}$	Sovitishning foydali ish ko‘effitsiyenti	—
$k_{\text{isit.f.ish}}$	Isitishning foydali ish ko‘effitsiyenti	—
k_{is}	Isitish tizimidagi quvvat yo‘qotilishi ko‘effitsiyenti	—
k_{sov}	Sovitish tizimidagi quvvat yo‘qotilishi ko‘effitsiyenti	—
m	Havo oqim massasi	kg/s
ΔT	Havo haroratining o‘zgarishi	$^{\circ}\text{C}$

Ushbu tizim fizik parametrlar asosida real vaqt rejimida haroratni tartibga soladi va energiya samaradorligini oshiradi. Model yuqoridagi fizik kattaliklar asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular tizimning issiqlik va energiya samaradorligini matematik jihatdan ifodalaydi.

Ushbu modelda kondensatsiya natijasida hosil bo‘lgan issiqlik bir qancha ifodalarga asosan chiqariladi.


Sovituvchi elementning harakat yo‘nalishi aniqlangan ($B1 \rightarrow B2$, $A1 \rightarrow A2$).



10-rasm. “Climat control” qurilmasining ichki yoyilma tuzilmasi

Tizim haroratga bog‘liq holda yoqish-o‘chirish funksiyasini bajaruvchi termostat asosida ishlaydi. Termostatik boshqaruv elementlari oqim yo‘nalishi, issiqlik oqimi va energetik parametrlarni boshqaradi. Harorat sezgich (Thouse)dan o‘lchangan qiymat

thermostatga uzatilib, on-off signal hosil qiladi va termostatik valni ishga tushiradi. AS1 elementidan issiqlik tashuvchi ko'rsatkichga, Conn2 orqali DC1 issiqlik almashinuv elementiga, chiqish esa Conn3 yoki A1 orqali uzatiladi.




11-rasm. “Climat control” qurilmasining imitatsion modelidan olingan xarakteristika

Eksperiment natijalarini tahlil qilishda mavjud va taklif etilgan qurilmalarning isitish va sovitish rejimlarida elektr energiya sarfi solishtirildi. Full Factorial, Central Composite Design (CCD) va Taguchi metodikasi qo'llanib, tizimning barqarorligi va optimal ish tartiblari aniqlandi. Har bir kombinatsiya bo'yicha empirik ma'lumotlar yig'ilib, issiqlik-energetik samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. “Climat control” qurilmasining sovitish rejimidagi natijalar jadval va grafiklarda keltirilgan.

3-jadval

Tashqi issiqlikning 25 °C holatdagi darajasi

No	Xona-ning maydoni	Xona-ning balandligi	Tashqi harorat	Kompyuter va televizorlar soni	Xonadagi mavjud odamlar-ning soni	Roison konditsionerining elektr energiya iste'moli	“Climat control” qurilmasining elektr energiya iste'moli
1	24	2,75	25 °C	2	5	1,8 kW·h	0,7 kW·h
2	28	2,75	25 °C	2	5	1,9 kW·h	0,82 kW·h
3	36	2,75	25 °C	2	5	2,2 kW·h	1,05 kW·h
4	40	2,75	25 °C	2	5	2,6 kW·h	1,18 kW·h




12-rasm. Tashqi issiqlik darajasining 25 °C holatdagi grafigi

4-jadval

Tashqi issiqlikning 30 °C holatdagi darajasi

№	Xona-ning maydoni	Xona-ning balandligi	Tashqi harorat	Kompyuter va televizorlar soni	Xonadagi mavjud odamlar soni	Roison konditsionerining elektr energiya iste'moli	“Climat control” qurilmasining elektr energiya iste'moli
1	24	2,75	30 °C	2	5	2,25 kW·h	1,1 kW·h
2	28	2,75	30 °C	2	5	2,5 kW·h	1,29 kW·h
3	36	2,75	30 °C	2	5	2,95 kW·h	1,65 kW·h
4	40	2,75	30 °C	2	5	3,3 kW·h	1,85 kW·h




13- rasm. Tashqi issiqlik darajasining 30 °C holatdagi grafigi

5-jadval

Tashqi issiqlikning 35°C holatdagi darajasi

№	Xona-ning maydoni	Xona-ning balandligi	Tashqi harorat	Kompyuter va televizorlar soni	Xonadagi mavjud odamlar soni	Roison konditsionerining elektr energiya iste'moli	“Climat control” qurilmasining elektr energiya iste'moli
1	24	2,75	35 °C	2	5	2,7 kW·h	1,5 kW·h
2	28	2,75	35 °C	2	5	3,1 kW·h	1,75 kW·h
3	36	2,75	35 °C	2	5	3,9 kW·h	2,22 kW·h
4	40	2,75	35 °C	2	5	4,49 kW·h	2,51 kW·h




14-rasm. Tashqi issiqlik darajasining 35 °C holatdagi grafigi

O'z o'rnida, "Climat control" qurilmasida isitish tartibida eksperiment tadqiqotlari ham o'tkazilgan.

O'tkazilgan eksperiment tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, qurilma mavjud isitish-sovitish qurilmalariga solishtirilganda energiya samaradorligi aniqlangan. Bunda xonaga ta'sir qiluvchi tashqi ta'sirlarni inobatga olib hisoblab chiqilgan.

Har bir eksperiment natijalari orqali erishilgan elektr energiya miqdori farqlari olingan (15-rasm).




15-rasm. Tartiblar bo'yicha elektr energiyasi miqdorlarining farqi grafigi

Iste'mol qilinayotgan elektr energiyasi miqdori bo'yicha farqini eng ko'pi bu tashqi harorat yuqori holatda sovitish tartibining xona maydoni kattasida o'tkazilgan eksperimentda yuz berdi. Ya'ni bu qiymat 1.99 kW·hni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **Binolarning isitish-sovitish tizimida energiya samaradorlikni ilmiy asoslash** deb nomlangan IV bobda tadqiqot obyekti - Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi bir qavatli jamoat binosining issiqlik yuklamasi hisoblanib, energiya samaradorligi QMQ 2.01.04-18 va SHNQ 2.01.01-2022 talablariga muvofiq baholandi. Bino issiqlik himoyasi darajalari bo'yicha issiqlik yo'qotishlari aniqlandi. "Climat Control" qurilmasining sovitish va isitish rejimlaridagi

quvvat, energiya iste'moli va samaradorlik ko'rsatkichlari (EER, COP, SEER, SCOP) aniqlanib, an'anaviy tizimlarga nisbatan yuqoriligi qayd etildi. Qurilmaning iqtisodiy samaradorligi baholanib, yillik tejamkorlik va investitsiya qaytish muddati hisoblandi. Natijalar qurilmaning qisqa muddatda o'zini oqlashi va uzoq muddatda ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishini ko'rsatdi.



16-rasm. Qavat rejasi

Sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan to'suvchi konstruksiyalarning issiqlik uzatilishiga keltirilgan qarshiligi (1a) formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R_0^{tr} = \frac{n(t_{ich} - t_{tsh})}{\Delta t^{tsh} \alpha_b} \quad (9)$$


Bir jinsli devor konstruksiyasining issiqlik o'tkazishga qarshiligi isitish davridagi harorat-sutka (D_d , °C·sutka) miqdori asosida aniqlanadi. Jamoat, ma'muriy va maishiy binolar uchun hisobiy qiymatlar QMQ 2.01.04-18 talablariga muvofiq tanlanib, $D_d \leq 2000$ bo'lgan birinchi va ikkinchi darajali, $2000 < D_d \leq 3000$ bo'lgan uchinchi darajali binolar uchun 2a, 2b va 2v-jadvallar asos qilib olindi. Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi tadqiqot obyekti uchun issiqlik yuklamalari ushbu me'yoriy hujjat asosida hisoblandi:

6- jadval.

Issiqlik himoyasi darajalariga qarab aniqlangan issiqlik yo'qotishlari va umumiy issiqlik yuklamalari

Issiqlik himoyasi	Q_{td} , (W/h)	Q_{td} , (W/h)	Q_{td} , (W/h)	Q_{tde} , (W/h)	Q_{shift} , (W/h)	Q_{pol} , (W/h)	ΣQ , (W/h)
1-xona uchun natijalar							
I daraja	731,46	430,3	595,2	364,9	342,1	333,96	2798
II daraja	546,4	321,4	444,6	364,9	342,1	333,96	2353,47
III daraja	405,4	238,5	329,87	277,03	246,34	333,96	1831,06
2-xona uchun natijalar							
Issiqlik himoyasi	Q_{td} , (W/h)	Q_{td} , (W/h)	Q_{td} , (W/h)	Q_{tde} , (W/h)	Q_{shift} , (W/h)	Q_{pol} , (W/h)	ΣQ , (W/h)
I daraja	415,2	430,3	484,06	182,5	223,9	218,6	1954,73
II daraja	310,2	321,4	361,58	182,5	223,9	218,6	1618,18
III daraja	230,1	238,5	268,3	132,7	161,2	218,6	1249,4

Tadqiqot obyekti jamoat binosining umumiy issiqlik yuklamasi QMQ 2.01.04-18 asosida hisoblandi. Natijada, I darajali issiqlik himoyasida $\sum Q = 4752,5$ W/h, II darajada $\sum Q = 3971,6$ W/h, III darajada esa $\sum Q = 3080,4$ W/h ekani aniqlandi.



17-rasm. Binoning issiqlik yuklamasining issiqlik himoya darajalariga bog‘liq holda o‘zgarish grafigi

Yuqorida aytilganidek, qurilmaning sovitish yoki isitish quvvati odatda BTU (British Thermal Unit) yoki kW bilan o‘lchanadi va quyidagi ifoda yordamida amalga oshiriladi:

$$Q = m \cdot C \cdot \Delta T \quad (10)$$

Agar havo oqimi m^3/h bilan berilsa, quyidagi formula ishlatiladi:

$$Q = 1.08 \cdot CFM \cdot \Delta T \quad (11)$$

Qurilmaning sovitish va isitish quvvatlari eksperimental natijalar asosida uch ish holati uchun alohida hisoblandi. Natijalar dastlab W va BTU/h birliklarida olinib, 1 BTU/h $\approx 0,293$ kW konversiyasi orqali kW ga aylantirildi. Hisoblangan qiymatlar tizimli taqqoslash uchun 7- va 8-jadvallarda keltirildi.

7-jadval

Sovitish rejimida xona o‘lchamlariga nisbatan BTU va quvvat ko‘rsatkichlari

Xona o‘lchamlari	BTU (British Thermal Unit)	Sovitish quvvati
24 m ²	4350	1,2 kW
36 m ²	6526	1,9 kW
40 m ²	7244	2,1 kW

8-jadval

Isitish rejimida xona o‘lchamlariga nisbatan BTU va quvvat ko‘rsatkichlari

Xona o‘lchamlari	BTU (British Thermal Unit)	Isitish quvvati
24 m ²	5037	1,4 kW
36 m ²	7555	2,2 kW
40 m ²	8387	2,4 kW

Samaradorlik jihatidan qurilmaning EER ko‘rsatkichi 3,8 ga teng bo‘lib, bu sovitish quvvati samaradorli ekanligini ifodalaydi. COP esa 3,61 bo‘lib, isitish jarayonining samaradorli ekanligini ko‘rsatadi. SEER 5,8 (A+) darajasida, SCOP esa 3,5 (A) darajasida baholanadi.

F.I.K qiymatlari, odatda, 1 dan katta bo'lishi kerak. Bu, tizim tomonidan ishlab chiqarilgan foydali energiya uning iste'mol qilgan elektr energiyasidan bir necha baravar ko'p ekanligini bildiradi. Bu holat issiqlik nasoslarida tabiiy ravishda yuzaga keladi.

9-jadval

Qurilmaning sovitish va isitish rejimidagi samaradorlik ko'rsatkichlari

Capacity	Sovitish yoki isitish quvvati	Sovitish	kW	1,2/1,9/2,12
			BTU/h	4350/6526/7244
		Isitish	kBT	1,4/2,2/2,4
			BTU/h	5037/7555/8387
Power	Iste'moli	Sovitish	kW·h	0,3/0,65/0,78
		Isitish		0,38/0,61/0,66
Energy efficiency		EER (Normal sovitish)	-	3,8
		COP (Normal isitish)	-	3,61
		SEER (Cooling energy Grade)	-	5,8 (A+)
		SCOP (Heating energy Grade)	-	3,5 (A)
F.I.K (foydali ish koeffitsienti)		Sovitish rejimi uchun	-	~4,0 / ~2,9 / ~2,7
		Isitish rejimi uchun	-	~3,7 / ~3,6 / ~3,4

XULOSA

1. "Climat control" qurilmasining struktura sxemasi ishlab chiqildi. Natijada sxema asosida "Climat control" qurilmasining tajriba namunasi ishlab chiqildi.

2. Matlab dasturi asosida "Climat control" qurilmasining xona o'lchamlari va tashqi haroratni hisobga olgan holda iste'mol qilayotgan elektr energiyasini aniqlash imkonini beruvchi matematik modeli ishlab chiqildi. Natijada nazariy va eksperiment tadqiqotlar natijalarini solishtirish imkoni yaratildi.

3. Ijtimoiy ahamiyatga ega binolarning isitish va sovitishda xona haroratini belgilangan qiymatlarda boshqaradigan innovatsion "Climat control" qurilmasini ishlash algoritmi ishlab chiqildi. Natijada ushbu algoritm asosida qurilma o'rnatiluvchi xonadagi mo'tadil iqlim nazorati yaratildi.

4. C++ dasturida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot "Climat control" qurilmasining o'rnatiladigan xona hajmiga qarab elektr energiyasi iste'molini aniqlash imkonini berdi.

5. "Climat control" qurilmasi yordamida eksperiment tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada mavjud isitish-sovitish qurilmalariga nisbatan energiya samaradorligi aniqlandi.

6. Energiyaning saqlanish qonuni va "Thumb" qoidasi asosida "Climat control" qurilmasining energiya va iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli takomillashtirildi. Natijada ilmiy asoslandi.

7. “Climat control” qurilmasining elektr energiya iste’molini aniqlash ilmiy asoslandi. Natijada binolarning sovitish tizimidagi energiyani 1.99 kW·h ga tejash orqali energiya samaradorligiga erishildi.

8. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, “FRUGAL TECHNOLOGY” MCHJda mavjud 5 ta qurilma o‘rniga 5 ta “Climat control” qurilmasi o‘rnatildi. Natijada yiliga 10 620 829 so‘m miqdorida elektr energiyasi va resurs tejamligidan iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.28.11.T.16.01 ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУРСУНОВ ДОНИЁР АБДУСАЛИМОВИЧ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМ
ОТОПЛЕНИЯ И ОХЛАЖДЕНИЯ ЗДАНИЙ**

05.05.01—Энергетические системы комплексы

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № B2023.4.PhD/T4233.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета при Бухарском государственном техническом университете (www.bstu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Жабборов Тулкин Камолович
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Каршибаев Аскар Илашевич
доктор технических наук, профессор
Худаяров Музаффар Бурхонович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный транспортный университет

Защита диссертации состоится 17 января 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.28.11.T.16.01 при Бухарском государственном техническом университете (Адрес: 200117, г.Бухара, ул.Каюма Муртазаева, 15. Тел.: (+998-65) 223-78-84; факс: (+998-65) 223-78-84; e-mail: info@bstu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул.Каюма Муртазаева, 15; Тел.: (+998-65) 223-78-84; факс: (+998-65) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 29 декабря 2025 года.

(протокол реестра № 5 от 27 декабря 2025 года).



Н.Н. Садуллаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
технических наук, профессор

У.К. Мирхонов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии по техническим наукам (PhD),
доцент

К.А. Самиев
Председатель Научного семинара при
Научного совета по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире обеспечение энергоэффективности систем микроклимата социально значимых зданий в настоящее время является одной из самых актуальных задач науки и практики, поскольку подобные исследования занимают ведущие позиции с точки зрения энергосбережения. Потому что системы оптимизации условий жизнедеятельности человека включают энергозатратные подсистемы, такие как отопление, вентиляция, кондиционирование, обеспечение холодной и горячей водой и др. В 2020–2021 гг. во всём мире (179 стран) совокупное конечное (полезное) потребление электрической энергии составило 23734 млрд кВт*ч. К 2020 году по сравнению с 1992 годом общий полезный расход увеличился на 5,5%. В 2021 году наибольший рост потребления электрической энергии по сравнению с 1992 годом пришёлся на Азию и Океанию—до 5,1 раза. В настоящее время на отопление и охлаждение зданий приходится 50–55% потребляемой электрической энергии⁵.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на внедрение энергосберегающих устройств в системы отопления и охлаждения зданий, а также на управление ими с использованием экологически чистых и современных технологий. В этом направлении особое внимание уделяется повышению энергоэффективности в отраслях экономики и социальной сфере при отоплении и охлаждении зданий, а также широкому внедрению энергосберегающих технологий и возобновляемых источников энергии.

В нашей Республики и отчёте, подготовленном в сотрудничестве Министерство экономического развития и сокращения бедности совместно с Всемирным банком, проанализированы проблемы и возможности страны в процессе перехода к «зелёной» экономике⁶. В нём были выявлены наиболее актуальные экологические и другие угрозы, по которым реализуются комплексные меры, позволяющие достичь определённых результатов. В соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 октября 2024 года № 690 «Об утверждении порядка проведения энергоаудита потребителей топливно–энергетических ресурсов, а также зданий и сооружений» утверждены «Положение о порядке проведения энергоаудита энергопотребления зданий и сооружений» и мероприятия по «Определению категории энергоэффективности зданий и сооружений с полезной площадью более 200 кв. метров, начиная с 1 ноября 2024 года»⁷.

Исходя из этого, данная диссертационная работа в определенной степени служит для практического выполнения задач, поставленных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, постановлении Президента ПП-4422 от 22 августа 2019 года “Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников

⁵ <https://uzeltech.uz/uz/> Энергопотребление электротехнических устройств и пути его экономии

⁶ <https://thediplomat.com>. Переход Узбекистана к зелёной экономике: проблемы и возможности

⁷ <https://www.lex.uz>. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 октября 2024 года № 690 “Об установлении порядка проведения энергоаудита потребителей топливно–энергетических ресурсов и энергопотребления зданий и сооружений”

энергии”⁴ и другими нормативно-правовыми документами связанными с этой отраслью.

Соответствие исследований приоритетному направлению развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан II «Энергетика, энергия и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. В научных центрах и высших учебных заведениях, таких как Budapest Tech Polytechnical Institution (Венгрия), John Hopkins University (Великобритания), United Nations University (Япония), International Institute of Management–University (Германия), Shanghai Jiao Tong University (Китай), Tsinghua University (Китай), Harvard University (США), Московский энергетический институт, активно проводятся обширные научные исследования по внедрению энергосберегающих устройств в системы отопления и охлаждения зданий, а также по использованию экологически чистых и современных технологий.

Существенный вклад в решение научных проблем, связанных с повышением энергетической эффективности систем отопления и охлаждения, внесли ряд зарубежных ученых. Например, Ольга Юрьевна Крючкова разработала вероятностно–статистическую климатическую модель для расчета энергопотребления в центральных системах кондиционирования. Олег Янович Кокорин разработал индивидуальные современные системы кондиционирования для различных типов конструкций. Баймачев Евгений Эдуардович создал методическое и программное обеспечение для поддержания микроклимата в зданиях. Также можно отметить ученых, таких как Л.Г.Старкова, Е.Ю.Анисимова, Ю.С. Солнышкова, В.А. Баум, Р. Байрамов.

В нашей республике в решении научных задач по повышению эффективности энергетических систем и использованию возобновляемых источников энергии активное участие принимают такие ученые, как Р.А. Захидов, Т.Х. Насиров, К.Р. Аллаев, Х.М. Муратов, Ш.В. Хамидов, А.Д. Таслимов, О.Х. Ишназаров, М.Б. Худаяров, Ё.С. Аббосов и С.Ф. Эргашев.

